

## ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA SO’Z LATOFATINING E’TIROFI

Mavlonova Madina Bahrom qizi

**Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o’qitish**

**o’zbek tili yo’nalishi 51-23 guruh talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227056>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibidagi maqolalar ichidan aynan so’z, uning tasviri, so’zning qudrati to’g’risida yoritiladi.

**Asosiy so’zlar:** “Hayrat ul -abror” dostoni, so’z gavhari, yaxshi so’z, yomon so’z.

Hayrat ul abror ko’rib zotini

“Hayrat ul-abror” dedim otini <sup>1</sup>

So’z mulkingning sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub bo’lgan “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostoni pand-nasihati ruhida ta’limiy-axloqiy, falsafiy dostonidir. Doston 3988 baytdan iborat bo’lib, 64 bob 20 maqolatdan tashkil topgan. “Hayrat ul-abror”da saxovat, odob, qanoat, vafo, ishq, rostlik, adolatlik, ilmlilik va boshqa turli fazilatlar to’g’risida maqolatlarning ichida so’z yuritiladi va hikoyalar orqali ilgari surilgan g’oyalarning mazmuni mustahkamlanadi. Mana shunday mavzulardan biri bu doimiy muloqotimizda foydalanadigan so’z va uning qudrati to’g’risida fikr yuritiladi. “Hayrat ul-abror”ning o’n to’rtinchi bobida so’z xususida fikr bildiriladi. Navoiy bobning nomini *“Odamzod vujudi osmonining jahonni yoritar yulduzlari va inson zotiga xos bo’lgan konning behisob javharlari bo’lgan so’z ta’rifida”* deb nomlaydi. Ya’ni insonning jismi osmon bo’lsa, so’z esa osmonni yoritar yulduzlar, osmonni yorug’ yulduzlar yoritib uni chiroyli qilsa, so’z ham insonga shunday ziynat beradi deb keltirib o’tiladi.

Dostonda aynan dunyoda birinchi yaratilgan so’z “Kofu nun” ya’ni “Kun” bo’lib, “Yaral”, “Bunyod bo’l” degan ma’nolarni bildirganligi va bu so’zning tarixi haqida ma’lumot beriladi.

*Jon o’lub ul, run aning qolibi*

*Kim tanida ruh, aning tolibi*

So’z jon bo’lib, ruh uning qolipidir. Tanasida ruhi bor odamgina doimo so’zga ehtiyoj sezadi

Barchamizga ma’lumki, til va so’z bir-biriga bog’liq jarayon hisoblanadi. Navoiy bobomiz ham shu narsani e’tirof etib *“Agar til bamisoli bir po’lat xanjar bo’lsa, so’z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi bo’lsa, so’z durlari unga qo’ngan shabnamlardir”* deb til va so’zning o’zaro bog’liq ekanligini ta’kidlab o’tayapti.

*Gar xud erur xanjari po’lod til,*

*So’ftidog’l injulari so’zni bil.*

*Til bu chamanning varaqi lolasi*

*So’z duraridin bo’lubon jolasi.*

Tabiiyki, so’z to’g’risida gap ketganida ota bobolarimiz tomonidan doimo yosh avlodlarga

<sup>1</sup> 1 Алишер Навоий . “Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд.-Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ф.Ғулом номидаги нашриёт-марбаа ижодий ўйи, 2013

yaxshi soʻzlarni soʻzlash lozimligi, yomon soʻzlardan tiyilish kerakligi aytib kelingan va dono xalqimizning “Yaxshi soʻz- jon ozigʻi, yomon soʻz- bosh qozigʻi” degan maqollari va hikmatli soʻzlari mavjud. “Hayrat ul-abror”da ham quyidagicha keltiriladi: *“Soʻz oʻlgan odamning tanasiga pok ruh bagʻishlaydi. Soʻzdan tandagi tirik ruh halok boʻlishi ham mumkin”* Haqiqatan birgina yaxshi soʻz orqali insonning koʻngliga iliqlik olib kirish mumkin, shu bilan birgalikda aksincha yomon va qoʻpol soʻzimiz orqali qalbni jarohatlash ham birgina soʻzimizga bogʻliq. Dostonda quyidagicha misollar keltiriladi: yaxshi soʻz bilan insonni tiriltirgani uchun Iso paygʻambar oʻzini “Jonbaxsh” degan laqab bilan atagan , soʻz tufayli Xalil oʻzini oʻtga tashlagan , Jabroil ham soʻz yukiga hammol boʻlgan deb keltiriladi.

*Tirguzub oʻlganni kalomi fasix,  
Oʻziga jonbaxsh laqab deb Masix*

*Soʻzdin etib oʻtgʻa azimat Xalil,  
Soʻz yukiga homil oʻlub Jabroil.*

Soʻz bilan har qanday yaxshilikni roʻyobga chiqarish mumkin. Qachonki, u soʻzning maʼnosi toʻliq tushunilib, muloqotga tayyor boʻlganidan soʻng.

Albatta har bir soʻzni nutqimizga koʻchirishdan oldin uning asl mohiyatini anglab soʻng uni jonlantirishimiz lozim. Dostonda shunday keltiriladiki, *“Tangri insonni sirlar xazinasi darajasiga koʻtargan ekan, uni soʻzlash qobiliyatiga ega boʻlganligi uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi”* deb aytib oʻtgan.

*Tangriki, insonni qilib ganji roz,  
Soʻz bila hayvondin anga imtiyoz.*

Tashqi tomondan goʻzal boʻlgan insonning qalbi qay darajada goʻzal ekanligini bilish uchun u bilan suhbatda boʻlmoq lozim, agar u inson har qancha chiroyli boʻlsa ham soʻz neʼmatidan bebehra boʻlsa, u goʻzal bilan devordagi surʼatning farqi qolmasligini Navoiy shunday keltirib oʻtadi:

*“Gʻuncha ogʻizlik, shirin lab jonon gapirmasdan labini yopib turib olsa, uning mayday totli lali lablari aqlni mast qilsa, mastlik u yoqda tursin , mayparast qilib qoʻysa ham, tashqi koʻrinishi bilan osmondagi oy boʻlsa ham devordagi surʼat bilan uning koʻrinishi oʻrtasida farq yoʻq”* deb aytib oʻtgan.

*Surat ila boʻlsa maxi osmon ,  
Surati devor hamon, ul hamon.*

Biz doimiy nutqimizda qoʻllayotgan soʻz shunchalar kuchli “ qurol” ekanki, birgina soʻzning qudratli kuchi orqali koʻngilga yaxshilik yoʻlini topishimiz yoki aksincha, ozor berishimiz mumkin , soʻz tufayli darddan forigʻ boʻlishimiz yoki gʻam anduhga tushishimiz mumkin. Navoiyning “ Hayrat ul-abror ” dostonidagi birgina bobdan mana shunday tuganmas xazinalarni topishimiz ham soʻz orqali amalga oshirilmoqda. Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek Navoiy soʻzga shunchaki munosabatda boʻlmagan, unga jiddiy yondashgan va buning yorqin dalilini uning yaratgan asarlarida ham koʻrishimiz mumkin. Navoiyni bejizga Soʻz mulkining

sultoni deb atamaganligimizga yana bir bor amin bo'ldik .Shunday ekan, Navoiy dahosinig asarlarini , ilmiy merosini o'rganishda , uning yangidan yangi qirralarini kashf etishda davom etishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. Navoiy asarlar lug'ati. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
2. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" o'n jildlik. Oltinchi jild-T:O'zbekiston Matbuot agentligi G' G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. "Hayrat ul-abror" nasriy bayoni-Toshkent, Tamaddun nashriyoti, 2021.